
Clustering of the concept “society” in English and Uzbek languages: comparative-cognitive analysis

Ibrokholmova Nasiba Mirzokhid kizi
mirzohidovna0328@gmail.com

Basic doctoral student,
Uzbekistan State World Languages University

Annotation

This article analyzes the clustering of the concept “society” in English and Uzbek from a comparative-cognitive perspective. The study identifies lexico-semantic, etymological, metaphorical, and sociolinguistic clusters of the concept. The theoretical framework is based on cognitive linguistics, conceptual metaphor theory, and sociolinguistic approaches. In both languages, “society” manifests as a complex, multi-layered structure expressed through specific linguistic means across various clusters. In English, the concept is clustered primarily through individualistic and contractual relations, while in Uzbek – from the perspective of collectivity and hierarchical dependence. The research reveals significant cultural differences in conceptualizing social structures: English emphasizes voluntary associations and negotiated relationships, whereas Uzbek reflects traditional community bonds and interdependent social hierarchies. The English “society” concept is closely connected with ideas of personal freedom, civil society, and contractual relations, where individuality and freedom of personal choice are prioritized. The Uzbek “jamiyat” is inseparably linked to family values, the mahalla institution, customs, and traditions. Furthermore, the Uzbek concept of “jamiyat” embodies meanings such as mutual assistance, solidarity, and social responsibility. The study has identified the national-cultural features of the “society” concept in both languages and their connection with historical and social factors. These findings contribute to understanding culturally specific worldviews and have practical implications for linguoculturology, translation studies, and language education.

Keywords

Concept of society, clustering, cognitive linguistics, comparative linguistics, linguoculturology

Ingliz va o‘zbek tillarida “jamiyat” konseptining klasterlanishi: qiyosiy-kognitiv tahlil

Ibrokholmova Nasiba Mirzokhid qizi
mirzohidovna0328@gmail.com

Tayanch doktorant,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Annotatsiya

Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi “jamiyat” konseptining klasterlanishi qiyosiy-kognitiv nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqot konseptning leksik-semantik, etimologik, metaforik va sotsiolingvistik klasterlarini ochib beradi. Nazariy asos sifatida kognitiv lingvistik, konseptual metafora nazariyasi va sotsiolingvistik yondashuvlar xizmat qiladi. “Jamiyat” konsepti har ikki tilda ham murakkab, ko‘p qatlamli tuzilma bo‘lib, turli klasterlarda o‘ziga xos lingvistik vositalar orqali ifodalanadi. Ingliz tilida konsept ko‘proq individualistik va shartnomaviy munosabatlar prizmasidan, o‘zbek tilida esa jamoaviylik va iyerarxik bog‘liqlik nuqtayi nazaridan klasterlanadi. Ingliz tilidagi “society” konsepti shaxsiy erkinlik, fuqarolik jamiyati va shartnoma asosidagi munosabatlar g‘oyalari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, unda individuallik va shaxsiy tanlov erkinligi ustuvorlik

qiladi. O'zbek tilidagi "jamiyat" konsepti esa oilaviy qadriyatlar, mahalla instituti, urf-odatlar va an'analar bilan uzviy aloqada namoyon bo'ladi. Shuningdek, o'zbek tilida "jamiyat" konsepti o'zaro yordam, hamjihatlik va ijtimoiy mas'uliyat kabi ma'nolarni ham o'zida mujassam etgan. Tadqiqot davomida har ikki tilda "jamiyat" konseptining milliy-madaniy xususiyatlari, ularning tarixiy va ijtimoiy omillar bilan bog'liqligi aniqlangan. Tadqiqot natijalari lingvokulturologiya, tarjima nazariyasi va til ta'limi uchun muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar *Jamiyat konsepti, klasterlashuv, kognitiv lingvistika, qiyosiy tilshunoslik, lingvokulturologiya*

**Кластеризация концепта
«общество» в английском и
узбекском языках:
сравнительно-когнитивный
анализ**

Иброхимова Насиба Мирзохид кизи

mirzohidovna0328@gmail.com

Докторант,

Узбекский государственный университет
мировых языков

Аннотация *В данной статье анализируется кластеризация концепта «общество» в английском и узбекском языках с сравнительно-когнитивной точки зрения. Исследование раскрывает лексико-семантические, этимологические, метафорические и социолингвистические кластеры концепта. Теоретическую основу составляют когнитивная лингвистика, теория концептуальной метафоры и социолингвистические подходы. Концепт «общество» в обоих языках проявляется как сложная многослойная структура, выражающаяся специфическими языковыми средствами в различных кластерах. В английском языке концепт кластеризуется преимущественно через призму индивидуалистических и договорных отношений, тогда как в узбекском языке – с точки зрения коллективности и иерархической зависимости. Английское "society" тесно связано с идеями личной свободы, гражданского общества и договорных отношений, где приоритет отдается индивидуальности и свободе личного выбора. Узбекское "jamiyat" неразрывно связано с семейными ценностями, институтом махалли, обычаями и традициями. Кроме того, в узбекском языке концепт "jamiyat" воплощает такие значения, как взаимопомощь, солидарность и социальная ответственность. В ходе исследования выявлены национально-культурные особенности концепта «общество» в обоих языках, их связь с историческими и социальными факторами. Выявленные различия отражают глубинные культурные особенности восприятия социальной реальности. Полученные результаты имеют практическое значение для лингвокультурологии, теории перевода и языкового образования.*

Ключевые слова *Концепт общества, кластеризация, когнитивная лингвистика, сравнительное языкознание, лингвокультурология*

Kirish

Til va jamiyat o'rtasidagi munosabat tilshunoslikning markaziy hamda dolzarb muammolaridan biri bo'lib kelmoqda. Jumladan, so'nggi yillarda kognitiv lingvistika va lingvokulturologiyaning jadal rivojlanishi natijasida "jamiyat" kabi mavhum konseptlarning tildagi namoyon bo'lishini o'rganish alohida dolzarblik kasb etdi. Har bir xalqning jamiyat haqidagi tasavvurlari uning tilida o'ziga xos tarzda aks etadi va bu tasavvurlarni ochib berish til egasining dunyoqarashini anglash imkonini beradi (Chilton, 2019). Kognitiv sotsiologiya va kognitiv lingvistika bir-birining istiqbollari va empirik topilmalarini e'tiborsiz qoldira olmaydi. Tilning kognitiv asoslarini tushuntirishda lingvistlar uning dialogik tabiatini, til o'zlashtirishda dialogning ahamiyatini va shu tariqa tilning erta sotsializatsiyaga bog'liqligini tan olishmoqda (Hasan, 2005).

Konseptlar haqida so'z borar ekan, "Jamiyat" konsepti murakkab, ko'p qirrali tuzilma bo'lib, til tizimida turli klasterlar – o'zaro bog'langan leksik birliklar, metaforik modellar va konseptual maydonlar – shaklida namoyon bo'ladi. Bu klasterlarni o'rganish va har tomonlama tavsiflash ikki xil madaniyat vakillarining ijtimoiy borliqni idrok etish xususiyatlarini qiyosiy o'rganish imkoniyatini bizga taqdim eta oladi. Mazkur tadqiqotimizda ingliz va o'zbek tillaridagi "jamiyat" konseptining klasterlanish modellarini aniqlash, ularning o'xshash va farqli jihatlarini kognitiv-semantik nuqtayi nazardan tahlil qilishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ydik. Ushbu tadqiqotimiz davomida "jamiyat" konseptining etimologik taraqqiyotini qiyosiy o'rgangan holda, leksik-semantik klasterlarni tavsiflash kognitiv-metaforik modellarni tahlil qilish; sotsiolingvistik xususiyatlarni ochib berish.

Nazariy-metodologik asoslar

Kognitiv lingvistika va konsept nazariyasi. Kognitiv lingvistika tilni inson tafakkuri bilan bog'liq holda o'rganadigan zamonaviy

yo'nalishdir. Bu yo'nalish vakillarining fikricha, til hodisalari insonning kognitiv faoliyati, dunyoni idrok etish va konseptuallashtirish jarayonlari bilan chambarchas bog'liq (Shaykhislamov, 2021). Kognitiv lingvistikaning asoschilaridan biri J.Lakoff va uning hamkorlari tomonidan ishlab chiqilgan metafora nazariyasi mavhum tushunchalarning konkret sohalar orqali konseptuallashtirilishini tushuntirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Lakoff va Jonson (1980) "Metaphors We Live By" asarida ta'kidlashicha, metafora "shunchaki so'zlar masalasi emas, balki inson tafakkur jarayonlari asosan metaforik xarakterga ega". Muayyan kontseptsiya haqida tizimli ravishda gapirish usullari metaforik kontseptsiyaning o'zi tomonidan shakllantiriladi (Lakoff & Johnson, 1980). Konsept – kognitiv lingvistikaning markaziy tushunchalaridan biri bo'lib, inson ongidagi bilim va tasavvurlarning mental birligidir (Safarov, 2006). Shu nuqtayi nazardan, "jamiyat" konsepti har bir tilda o'ziga xos klasterlar – o'zaro bog'langan ma'no maydonlari – tizimini tashkil etadi.

Klasterlashuv nazariyasi. Tilshunoslikda klasterlashuv deganda bir tushuncha atrofida birlashgan leksik birliklar, metaforik modellar va konseptual maydonlarning yig'indisi tushuniladi (Mahmudov, 2020). Bu yondashuv I.Triersning maydon nazariyasiga borib taqaladi. Keyinchalik kognitiv tilshunoslikda bu g'oya prototip semantika va freym semantikasi doirasida rivojlantirildi. Kognitiv yondashuvlar semantik ramka (frame) nazariyasini o'z ichiga oladi, bu nazariya leksik ma'no va grammatik jihatdan qo'zg'atilgan diqqat o'zgarishlari kabi hodisalarni tavsiflaydi (Chilton, 2019). Keng qo'llaniladigan yondashuv kontseptual metaforani tahlil qiladi, bunda "metafora" turli kontseptual domenlarni, jumladan, obraz sxemalarini bog'lash orqali ishlaydigan mental ramkalash vositasi sifatida tushuniladi (Chilton, 2019). "Jamiyat" konseptining klasterlanishini o'rganishda quyidagi metodlardan foydalanildi: (1) komponent tahlil – leksik birliklarning

semantik tarkibiy qismlarini aniqlash; (2) etimologik tahlil – soʻzlarning kelib chiqishi va tarixiy taraqqiyotini oʻrganish; (3) qiyosiy-chogʻishtirma tahlil – ikki tildagi klasterlarni solishtirish.

Tadqiqot materiali sifatida ingliz va oʻzbek tillarining izohli, etimologik va frazeologik lugʻatlari, milliy korpuslari (British National Corpus, Corpus of Contemporary American English) hamda badiiy va publitsistik matnlar xizmat qildi (Aikhenvald, Dixon, & Jarkey, 2021).

“Jamiyat” konseptining etimologik klasteri. Ingliz tilidagi “society” soʻzining etimologiyasi: ingliz tilidagi “society” soʻzi lotincha “societas” soʻziga borib taqaladi. “Societas” esa “socius” (hamroh, sherik) soʻzidan olingan boʻlib, dastlab “hamrohlik”, “ittifoq”, “shartnoma asosidagi birlashma” maʼnolarini anglatgan (Ogereau, 2014). Rim huquqi nuqtayi nazaridan, societas ikki yoki undan ortiq shaxslarning ixtiyoriy ravishda tuzgan shartnomasi – mulk yoki mehnatni birlashtirish kelishuvi – maʼnosini anglatgan. Bu kelishuvda tomonlar oʻzlarining malaka va mehnatlarini (ars et opera) birlashtirib, maʼlum bir maqsad yoʻlida hamkorlik qilganlar (Ogereau, 2014). XIV asrdan boshlab “society” soʻzi ingliz tiliga kirib kelgan va dastlab “doʻstlar davrasi”, “hamjamiyat” maʼnolarida ishlatilgan (Barbouchi, 2015). Keyinchalik bu soʻz kengayib, butun bir ijtimoiy tizimni ifodalay boshlagan. Tadqiqotchilar Kirdina-Chandler va Kruglova (2019) taʼkidlashicha, Y-matritsa (individualistik) jamiyatlar tilida “jamiyat” tushunchasining shakllanishi “xususiydan umumiyga” qarab – quyidan yuqoriga (bottom-up) mantiqini aks ettiradi. Yaʼni, jamiyat individlarning yigʻindisi, ularning ixtiyoriy birlashmasi sifatida tushuniladi (Kirdina-Chandler & Kruglova, 2019).

Oʻzbek tilidagi “jamiyat” soʻzining etimologiyasi. Oʻzbek tilidagi “jamiyat” soʻzi arab tilidan olingan boʻlib, “jam” (yigʻish, toʻplash) ildiziga borib taqaladi. “Jamiyat” – yigʻilgan, toʻplangan narsa, jamlanganlik

maʼnosini anglatadi (Mahmudov, 2020). Bu soʻzning semantik tarkibida “birlik”, “umumiylik”, “yaxlitlik” maʼnolari ustunlik qiladi. “Jam” ildizidan yasalgan boshqa soʻzlar – “jamoat”, “jamoatchilik”, “jami”, “majmua”, “jumla” – ham “birlik”, “yigʻindilik” maʼnolarini ifodalaydi. Bu esa oʻzbek tili ongida “jamiyat” tushunchasining yaxlit bir butunlik, individlardan oldin mavjud boʻlgan umumiy birlik sifatida tushunilishidan dalolat beradi.

Kirdina-Chandler va Kruglova (2019) taʼrifiga koʻra, X-matritsa (kollektivistik) jamiyatlarda “jamiyat” tushunchasining shakllanishi “umumiydan xususiyga” qarab – yuqoridan pastga (top-down) mantiqini aks ettiradi. Bunda butun (jamiyat) asosiy, individ esa unga nisbatan ikkilamchi hisoblanadi (Kirdina-Chandler & Kruglova, 2019). Etimologik tahlil shuni koʻrsatadiki, turli tillardagi “jamiyat” kabi asosiy til konstantalarining mazmuni jamiyatlarning institutsional tashkil etilishining muhim xususiyatlarini aniq aks ettiradi (Kirdina-Chandler & Kruglova, 2019).

Shunday qilib, etimologik klasterda ingliz va oʻzbek tillari oʻrtasidagi tub farq namoyon boʻladi: ingliz tilida “jamiyat” individlarning ixtiyoriy birlashmasi (societas), oʻzbek tilida esa individlarni oʻzida birlashtiruvchi yaxlit bir butunlik (jamʼ) sifatida tushuniladi.

Leksik-semantik klaster. *Sinonimik qatorlar*-ingliz tilida “society” soʻzining sinonimik qatoriga quyidagi birliklar kiradi: community (jamoat), association (uyushma), organization (tashkilot), public (jamoatchilik), population (aholi), culture (madaniyat), civilization (sivilizatsiya) (Barbouchi, 2015). Bu sinonimlarning har biri “jamiyat” tushunchasining muayyan qirrasini ifodalaydi. Oʻzbek tilida “jamiyat” soʻzining sinonimlari: jamoa, el, xalq, ummat, jamoatchilik, ahliya (eskirgan) (Mahmudov, 2020). Anvarova (2025) tadqiqotiga koʻra, oʻzbek tilida qarindoshlik va urugʻchilikka oid leksika (“urugʻ”, “qabila”, “elat”, “xalq”) “jamiyat” konsepti bilan chambarchas bogʻlangan holda klasterlanadi (Anvarova, 2025).

Antonimik munosabatlar-ingliz tilida "society" so'zining asosiy antonimi individual (shaxs) hisoblanadi. Bu qarama-qarshilik ingliz falsafasi va sotsiologiyasidagi "individ – jamiyat" dialektikasini aks ettiradi. Boshqa antonimlarga nature (tabiat), solitude (yolg'izlik), isolation (izolyatsiya) kiradi (Barbouchi, 2015). O'zbek tilida "jamiyat" tushunchasiga "yolg'izlik", "ayrilik", "tanholik" antonim sifatida qaraladi. Raximova (2025) ta'kidlashicha, antonimlar sotsiopragmatik nuqtayi nazardan tahlil qilinganda, o'zbek tilida "jamiyat – yolg'izlik" qarama-qarshiligi ingliz tilidagiga nisbatan keskinroq ifodalanadi (Raximova, 2025). Antonimlar ijtimoiy maqom, madaniy qadriyatlar, hokimiyat va xushmuomalalik normalarini aks ettiradi, til va jamiyat o'rtasidagi munosabatni yoritadi (Raximova, 2025).

Sotsiolingvistik klaster:

Hurmat va xushmuomalalik ifodasi. Ingliz va o'zbek tillarida hurmat va xushmuomalalik ifodalanishi "jamiyat" konseptining muhim klasterlaridan biridir. Ingliz tilida xushmuomalalik asosan sintaktik vositalar – modal fe'llar, shart mayli, so'roq gaplar – orqali ifodalanadi: Would you please..., Could you possibly..., I was wondering if... (Hasan, 2005).

O'zbek tilida esa xushmuomalalik maxsus leksik birliklar – iltimos, marhamat, rahmat, kechirasiz – va murojaat shakllari – aka, opa, xola, domla, akajon, opag'oy – orqali ifodalanadi (Anvarova, 2025, p. 49). Anvarova qayd etishicha, o'zbek tilida "hurmat" tushunchasi ingliz tilidagi "respect" so'ziga nisbatan kengroq ma'no doirasiga ega bo'lib, u kutiladigan xulq-atvor va jamiyatdagi qadriyatlarga asoslangan munosabatni ifodalaydi (Anvarova, 2025).

Gender xususiyatlari. Jamiyat konseptining gender klasteri ikki tilda turlicha ifodalanadi. Ingliz tilida so'nggi yillarda gender-neytral leksika keng tarqalgan: chairperson (rais), spokesperson (vakil), police officer (politsiyachi) (Aikhenvald, Dixon, & Jarkey, 2021). Bu jamiyatdagi gender tengligi g'oyalarining tilga ta'sirini ko'rsatadi.

O'zbek tilida esa gender xususiyatlari aniq ifodalanadi: rais – raisa, o'qituvchi – o'qituvchi ayol, shoir – shoira (Anvarova, 2025). Anvarova ta'kidlashicha, o'zbek tilidagi "erkak ishi", "ayol ishi" kabi iboralar jamiyatdagi gender stereotiplarini aks ettiradi.

Paremiologik klaster. Maqol va matallar "jamiyat" konseptining paremiologik klasterini tashkil etadi. Bu klasterda xalqning jamiyat haqidagi qarashlari, ijtimoiy normalar va qadriyatlar ifodalanadi (Mahmudov, 2020). Ingliz maqollarida jamiyat ko'pincha shartnomaviy munosabatlar prizmasidan talqin qilinadi:

- No man is an island – bu maqol John Donne she'ridan olingan bo'lib, insonning jamiyatga bog'liqligini ifodalaydi (Barbouchi, 2015).
- Society is governed by laws, not by men (Jamiyatni odamlar emas, qonunlar boshqaradi) – bu maqol ingliz huquqiy tafakkurining mahsulidir.
- A man is known by his company (Odam o'z hamrohiga qarab taniladi) – bu maqol ijtimoiy munosabatlarning ahamiyatini ko'rsatadi.
- O'zbek maqollarida esa jamiyat jamoviylik va birdamlik nuqtayi nazaridan talqin qilinadi:
- "Jamiyat – kuch" (Society is power) – bu maqol jamoaning birlashgan kuchini ifodalaydi (Mahmudov, 2020).
- "Eldan chetda – sendan chetda" (Away from the people – away from yourself) – bu maqol jamiyatdan chetlanishning salbiy oqibatlarini ko'rsatadi (Mahmudov, 2020).

Bu maqollar o'zbek tili ongida jamiyatdan chetda qolish eng yomon holatlardan biri sifatida baholanishini, ingliz tilida esa shaxsning mustaqilligi va individualligi ko'proq qadrlanishini ko'rsatadi.

Xulosa

Ingliz va o'zbek tillaridagi "jamiyat" konseptining klasterlanishi qiyosiy-kognitiv tahlili shuni ko'rsatadiki, "jamiyat" konsepti har ikki tilda ham murakkab, ko'p qatlamli klasterlar

tizimidan iborat. Bu klasterlarni bilish tarjima jarayonida, til o'qitishda va madaniyatlararo muloqotda muhim ahamiyat kasb etadi.

Konseptning klasterlanish modeli til egasining jamiyat haqidagi tasavvurlarini, ijtimoiy qadriyatlarini va dunyoqarashini ochib beradi.

References:

1. Aikhenvald, A., Dixon, R., & Jarkey, N. (Eds.). (2021). *The integration of language and society: A cross-linguistic typology*. Oxford University Press.
2. Anvarova, S. (2025). Semantic content of social lexicon in Uzbek and English languages. *Лингвостепектп, 1*, 45-52.
3. Barbouchi, L. (2015). The origins of the concept of society in Arabic, English and French languages: A conceptual analysis of their convergence and divergence. *International Conference Paper*, 1-15.
4. Chilton, P. (2019). *Cognitive linguistics*. In W. H. Brekhus & G. Ignatow (Eds.), *The Oxford handbook of cognitive sociology*. 242-270. Oxford University Press.
5. Hasan, R. (2005). *Language, society and consciousness: The collected works of Ruqaiya Hasan*. Equinox Publishing.
6. Kirdina-Chandler, S. G., & Kruglova, M. S. (2019). "Society", "state" and institutional matrixes: A case in interdisciplinary meso-analysis. *Sotsiologicheskie Issledovaniya, 10*, 15-26.
7. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). *Metaphors we live by*. University of Chicago Press.
8. Mahmudov, N. (2020). *O'zbek tili leksikasi va frazeologiyasi*. Fan.
9. Ogereau, J. M. (2014). Paul's κοινωνία with the Philippians: Societas as a missionary funding strategy. *New Testament Studies, 60*(3), 1-24. Cambridge University Press.
10. Raximova, F. (2025). Ingliz va o'zbek tillaridagi sotsiopragsmatik farqlar: Antonimlar asosida. *TSUULL Conference Proceedings*, 112-118.
11. Safarov, Sh. (2006). *Kognitiv tilshunoslik*. Sangzor.
12. Shaykhislamov, N. (2021). The direction of modern linguistics – The concept of cognitive linguistics. *Academic Research in Educational Sciences, 2*(1), 234-242.